

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10861919>

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI SOLIQ VOSITASIDA QO‘LLAB- QUVVATLASHNING ZARURLIGI VA UNDA SOLIQ KATEGORIYASINING NAZARIY-ILMIY ASOSLARI

M.E.Shoturayeva

O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi
huzuridagi Fiskal instituti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tadbirkorlik subyektlarini soliqlar vositasida qo‘llab quvvatlash zarurligining nazariy-ilmiy asoslari bayon qilingan bo‘lib, unda kichik va o‘rta biznes, xususiy tadbirkorlikni soliqlar vositasida qo‘llab quvvatlashga bag‘shlangan nazariy manbalar tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *biznes, tadbirkorlik, soliq, fiskal, siyosat, imtiyoz, reyting, byudjet.*

ABSTRACT

This article describes the theoretical-scientific basis of the need to support business entities through taxes, and provides an analysis of theoretical resources dedicated to supporting small and medium-sized businesses and private entrepreneurship through taxes.

Key words: *business, entrepreneurship, tax, fiscal, policy, privilege, rating, budget.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны теоретико-научные обоснования необходимости поддержки субъектов предпринимательства посредством налогов, а также проведен анализ теоретических ресурсов, посвященных поддержке малого и среднего бизнеса и частного предпринимательства посредством налогов.

Ключевые слова: бизнес, предпринимательство, налоги, фискальная, политика, льготы, рейтинг, бюджет.

KIRISH. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kichik va o‘rta biznes, xususiy tadbirkorlikni soliqlar vositasida qo‘llab quvvatlash mexanizmlarining nazariy va ilmiy asoslarini tadqiq etish shu kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki, mamlakat iqtisodiyotini soliqlar orqali tartibga solish davlat byudjetini tashkil etishning usuli bo‘lsa, soliqqa tortish yo‘li bilan esa jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarni rivojlanishiga ta’sir etish mumkin. Ma’lumki, kichik va o‘rta biznes, xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lib, erkin tovar-pul munosabatlariga asoslangan kishilik jamiyatida o‘zining raqobatga bardoshligi, aholi bandligini oshirishda eng samarali xo‘jalik shakli ekanligi, mamlakatning hududiy rivojlanishini ta’minlash va yalpi milliy mahsulot tarkibi va sifatini belgilab berishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, 2023 yil 18 avgust kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlash, shuningdek, soliqlarni o‘z vaqtida to‘lab, qonunchilik talablariga amal qilgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish va ularni rag‘batlantirish orqali bozorlar to‘kinligini ta’minlash, mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI. Iqtisodiyotning yanada rivojlantirish va liberallashtirilish sharoitida kichik va o‘rta biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqlar vositasida qo‘llab quvvatlashning samarali mexanizmlari masalalari A. Laffer, G. Lovrens, G.R. Zodrov, P. Miyezkovski, L. David, G. Blodget, Piter Midil, K. Makkonel, Simon Nenbii, Baro, Cheperu, Sirkvin, Lapdu, Dayomond, Lonje, Odusola, Ekpo, Stotski, Voldemarim, Piankastelli, Eltoni, Nagi, Xanson, Tiirining tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan T.Malikov, U.Radjabov, B.Toshmurodova, Q.Yaxyoyev, N.Xaydarov, O. Olimjonov, E. Gadoyev, S.Adizov, S.G‘ulomov va

M.Sharifxo‘jayevlarning ilmiy ishlarida byudjet-soliq siyosatining nazariy va amaliy jihatlariga yetarlicha e‘tibor qaratilgan jumladan, soliq mexanizmi, korxonalar investitsion faoliyatida moliya-soliq munosabatlari, soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish kabi masalalar tadqiq etilgan.

TADQIQOT USULLARI. Tadqiqotda ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, hisob-kitob usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJA: O‘zbekiston Respublikasida soliq va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘iluvchanligining zarur darajasini ta‘minlash, imtiyozlar berish borasida aniq mezon va mexanizmlarni ishlab chiqish, berilayotgan imtiyozlar va preferensiyalarning samaradorligini baholashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Soliq ma‘muriyatchiligini isloh etish, davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish va rivojlanishi bo‘lgan «raqamli iqtisodiyot»ni shakllantirish, shuningdek, soliq nazorati sohasidagi umume‘tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishni jadallashtirish davr talabi hisoblanadi.

Shu sababli ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” da soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish yo‘lini davom ettirish, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va rag‘batlantirishning tegishli choralarini kengaytirish¹ ga alohida to‘xtalib o‘tgan. Bu mamlakatimizda soliq yukini kamaytirish va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning investitsion faolligini rag‘batlantirish bo‘yicha olib borilayotgan soliq siyosati qanchalik to‘g‘ri ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va samaradorligini oshirish bozor iqtisodiyotini shakllantirishning muhim sharti ekanligiga alohida e‘tibor berilmoqda va ushbu faoliyat davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Kichik va

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”to‘g‘risidagi PF-4947-son Farmoni.

oʻrta biznes va xususiy tadbirkorlikning davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanishi xoʻjalik yuritish tizimini yaratishning bozor mexanizmlariga asoslanib mamlakatning joriy va istiqbol rivojlanish bosqichlardagi maqsadlariga erishish vositasi boʻlib, u mamlakatning umumiy va bosqichli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari bilan uygʻundir.

Bozor munosabatlarining asosiy xususiyatlaridan biri bu xususiy mulkchilikni rivojlantirish, iqtisodiy munosabatlarning xususiyatini tadbirkorlik faoliyati orqali tubdan oʻzgartirib, ishlab chiqaruvchining sifat jihatini oʻzgartirish, iqtisodiy javobgarligini koʻchaytirishni taqozo etadi. Davlat iqtisodiyotni tartiblab turuvchi subyekt boʻlganligi sababli tadbirkorlik faoliyatini tartiblashda faol qatnashadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda kichik va oʻrta biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini soliq vositasida qoʻllab quvvatlash borasida izchil islohotlar olib borilmoqda.

Aynan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 йил 23 январдаги “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi PQ-39-son Qaroriga asosan “Savdo-sanoat palatasi Soliq qoʻmitasi, Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish boʻyicha vakil va manfaatdor idoralar bilan birgalikda ikki hafta muddatda reyting koʻrsatkichlari mezonlari boʻyicha uslubiy qoʻllanma ishlab chiqib, uning soliq toʻlovchining shaxsiy kabineti orqali tadbirkorlik subyektlariga yetkazilishini taʼminlasin”¹ vazifasi belgilangan. Chunki, nazariy manbalar tahlilidan koʻrinadiki, soliq vositalari orqali qoʻllab quvvatlashning samarali mexanizimini yaratish va undan foydalanish nafililigini taʼminlash obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Amaldagi Soliq Kodeksining 2-bobida Oʻzbekiston Respublikasida soliqlar va yigʻimlar tizimi bayon qilingan boʻlib, “soliq deganda ushbu Kodeksda belgilangan, Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamgʻarmasiga (bundan

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 йил 23 январдаги “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi PQ-39-son Qarori. www.lex.uz.

buyon matnda byudjet tizimi deb yuritiladi) to'lanadigan majburiy beg'araz to'lov tushuniladi"¹.

Yig'imler byudjet tizimiga Soliq Kodeksida yoki boshqa qonunchilik asoslarida belgilangan majburiy to'lov nazarda tutilib, ushbu yig'implarning to'lanishi to'lovchiga vakolatli organ yoxud uning mansabdor shaxsi tomonidan huquqiy harakatlarni amalga oshirish, xususan, unga muayyan huquqlarga ruxsat qiluvchi hujjatlarni berish shartlaridan biri hisoblanadi. Shaxsning zimmasiga sud natijasida yuklatilgan jarimalar, boshqa to'lovlar, qonunda belgilangan hollarda mol-mulkni musodara etish va boshqacha tarzda olib qo'yish holatlari soliqlar yoki yig'imler tarkibiga kirmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 17-moddasida O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan soliqlarning quyidagi turlari keltirilgan²:

- 1) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 2) aksiz solig'i;
- 3) foyda solig'i;
- 4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 5) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- 5³¹) foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'i;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) yer solig'i;
- 9) ijtimoiy soliq.

Soemitro fikricha, soliqlar - bu odamlardan qonunan, evaziga hech qanday xizmat bajarmaslik sharti bilan, to'g'ridan to'g'ri davlat g'aznasiga yo'naltirilgan va davlatning umumiy xarajatlari uchun ishlatiladigan to'lovdir. Kaganni fikriga ko'ra,

¹ O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrda O'RQ-741-sonli [Qonuni](#) tahririda. - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son), 16-modda.

² O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrda O'RQ-741-sonli [Qonuni](#) tahririda. - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son), 17-moddai.

³ O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrda O'RQ-741-sonli [Qonuni](#) tahririda. -Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son).

soliqlar – mahalliy, mintaqaviy yoki milliy davlat organlari tomonidan jismoniy shaxslar yoki korporatsiyalardan undiriladigan majburiy badallardir.

S.Pepelyayev «Soliq - ommaviy hokimiyat subyektlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar mulklarini begonalashtirishning majburiylik, yakka tarzda xolisona, qaytarmaslik, davlatning majburlashi bilan ta'minlanganlik asoslarida va jazo yoki kontribusiya xarakteriga ega bo'lmagan qonunda belgilangan yagona shaklidir» - deb ta'kidlagan.

SH.Gataulinga ko'ra, «soliqlar - bu davlat sarf-xarajatlarining asosiy manbai bo'lib, iqtisodiyotni tartibga soluvchi va daromadlarni barqarorlashtiruvchi vositadir». O.Olimjonovning fikriga ko'ra, soliqlar – davlat va jamiyatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajmda va o'rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to'lovlardir.

XULOSA: Yuqorida qayd etilgan fikrlardan ko'rinadiki, soliqlar bu davlatning nafaqat fiskal siyoti, balki ushbu siyosatni amalga oshirishda davlat soliqning rag'batlantirish funksiyasidan ham foydalanishda samarali mexanizmlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiq etish imkoniyati ham mavjud. Shunday ekan, kichik va o'rta biznes va xususiy tadbirkorlikni soliq vositasida qo'llab quvvatlash zarurati ilmiy jihatdan o'z isbotiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-4947-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 йил 23 январдаги “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-39-son Qarori. www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrda O‘RQ-741-sonli [Qonuni](#) tahririda. - Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son), 16-moddai.
4. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrda O‘RQ-741-sonli [Qonuni](#) tahririda. - Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son), 17-moddai.
5. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrda O‘RQ-741-sonli [Qonuni](#) tahririda. -Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son).
6. Jumayeva G.J., Saidmurodov I. ZAMONAVIY IQTISODIYOT SHAROITIDA SUBSIDİYALAR VA IMTIYOZLARNING TA’SIRI //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – С. 106-112.